

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 12/1

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 12/1 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳақимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодири Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Елмуратов Икматулла Гайбуллаевич</i> ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ БИРИНЧИ ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ТАРИХИ (1931-1936 ЙИЛЛАР)	12-18
<i>Qitaybekov Azizbek Kenesbek o'g'li</i> QORAQALPOG'ISTONDA HAVO TRANSPORTINING SHAKLLANISHIDA "DOBROLET" AKSIYADORLIK JAMIYATINING O'RNI	19-23
<i>Nawrizbaeva Nurjamal Qudaybergenovna</i> QORAQALPOQLARNING GILAMCHILIGI BILAN BOG'LIQ VA'ZI MAROSIMLAR	24-29
<i>Сайдуллаев Фаррух Умедулло ўғли</i> МУҲАММАД ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ ЭТНОЛОГИК ВА ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРИ	30-35
<i>Berdiqulov Mirolim Tugalvoyevich</i> ТО'ДА-1 NEOLIT MAKONINING O'ZBEKISTON TOSH DAVRI ARXELOGIYASINI O'RGANISHDAGI O'RNI	36-40
<i>Olimjonova Gulida Olimjon qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BOJXONA XIZMATI ORGANLARI FAOLIYATI ..	41-47
<i>O'ng'alov Lazizbek Amiriddin o'g'li</i> NUROTA TOG' TIZMASINING TOSH DAVRI ARXELOGIYASINING O'RGANILISH TARIXI..	48-53
<i>Rahmonov Faxriddin Shoymardonovich</i> MILLIY DEHQONCHILIK MADANIYATINI ETNO-TARIXIY MANBALARDA AKS ETISHI (JANUBIY O'ZBEKISTON MISOLIDA)	54-58
<i>Tilavboyev Muhammad</i> JIZZAX VOHASIDA OT BILAN BOG'LIQ URF-ODATLAR VA MAROSIMLAR	59-63
<i>To'xtaboyev Xurmatullo Shomirza o'g'li</i> O'ZBEKISTON ILM-FANI RIVOJIDA FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETINING O'RNI (MUSTAQILLIK YILLARI MISOLIDA)	64-68
<i>Рахматиллаев Хасанбой</i> МАРКАЗИЙ ОСИЁНИНГ ҚАДИМГИ ДАВР ЭТНИК ТАРИХИНИ ЁРИТИШДАГИ АЙРИМ МУАММОЛИ МАСАЛАЛАР ВА УСУЛЛАРГА ДОИР	69-74
<i>Qurbonova Manzila Boqiyevna</i> BUXORO VOHASI MILLIY SHIRINLIKLARI VA ICHIMLIKLARI	75-80
<i>Ravshanova Gulora</i> QASHQADARYO VOHASIDA MUNTAZAM QUROLLI HARAKATLAR TA'MINOTI (XX-asrning 20- yillarida)	81-85
<i>Зарипбаев Уснатдин Оракбаевич</i> ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АССР ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ	86-90

<i>Baxronov Abdullo Haydar o'gli</i> O'ZBEKISTONDA TOSH DAVRI ARXELOGIYASINI O'RGANISHDA XALQARO EKSPEDISIYALARINING O'RNI	91-95
<i>Maxmatqulov Jasur Isroil o'g'li</i> GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH MAVZUSINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	96-101
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON-TURKIYA HAMKORLIGI VA UNING NATIJASI (TO'QIMACHILIK SANOATI MISOLIDA)	102-106
<i>Норбоев Сарвар Қахрамон ўғли</i> АФРОСИЁБДАГИ СЎҒД МУДОФАА ДЕВОРИГА ОИД ТАДҚИҚОТЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ (XX АСРНИНГ 50-80-ЙИЛЛАРИ).....	107-111
<i>Эсонов Зиёдбек Юлдашевич</i> ФАРҒОНА ВОДИЙСИ АҲОЛИСИ ТЎҚИМАЧИЛИК ҲУНАРМАНДЧИЛИГИ АНЪАНАЛАРИ	112-117
<i>Tishabayeva Irodaxon Rasulovna</i> 1960-1970 YILLARDA O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI	118-124
<i>To'xtamishева Fotima Musurmonovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VOHASI KASHTADO'ZLIGIDA O'ZGARISHLAR.....	125-132
<i>Sattorov Nurbek</i> SHIMOLIY BAQTRIYA VA ZARAFSHON MINTAQALARIDA DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK MADANIYATI SOHIBLARI ETNOMADANIY ALOQALARINING O'ZBEK XALQI ETNOGENEZI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI	133-138
<i>Hazratov Nurali Burxon ug'li</i> QADIMGI KESH VILOYATI HUDUDIDAGI ARXELOGIK YODGORLIKLARINING O'RGANILISH TARIXIDAN	139-144
<i>Mamatqulov Bekzod Sherzovich</i> O'ZBEKISTONDA GAZ-OLTINGUGURT SANOATINING YUZAGA KELISHI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA).....	145-149
<i>Berdiyev Jamshid</i> VOHA JOY NOMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNONIMLAR VA PATRONIMLARNING TUTGAN O'RNI	150-155
<i>Djurakulov Sherzod Davronovich</i> SAMARQAND VILOYATI HUDUDIDI TOSH DAVRI ARXELOGIYASINING O'RGANILISHI TARIXI	156-161
<i>Қурбанова Дилрабо Шерипбоевна</i> ПАРЛАМЕНТ ТАРИХИ ВА ТАРИХШУНОСЛИГИ	162-172

<i>Зухриддин Болтаевич Жунаев</i> ХОРАЗМДА РЕСПУБЛИКА ТУЗУМИ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР (1920-1924 йиллар)	173-181
<i>Mamadiev Voxodir Bobojonovich</i> QASHQADARYO MUZEYIDAGI NODIR OSTODON	182-186
<i>Norqo'chqarov Xushvaqt Eshnazarovich</i> AFG'ONISTONDA O'ZBEK TILINING QONUNY ASOSLANISHI, O'ZBEKLAR IJTIMOYIY-MADANIY HAYOTIDAGI O'RNI (XX ASR – XXI ASR BOSHLARI)	187-197
<i>Ибрагимов Рахмон Зиёдуллаевич</i> ТОШКЕНТ ВОҲАСИ СЎНГГИ БРОНЗА ДАВРИ ТАРИХИ ТИЗИМИДА: ДАФН УДУМИ ВА МИГРАЦИЯ МАСАЛАЛАРИ	198-203
<i>Азаматова Гулмира Байирбековна</i> ОДАМ САВДОСИГА УЧРАГАН МИГРАНТ ХОТИН-ҚИЗЛАР ҲАҚИДА БАЎЗИ МУЛОҲАЗАЛАР	204-208
<i>Tishabayeva Iroдахon Rasulovna</i> 1960-1970 YILLARDA O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI	209-215
08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ	
<i>Ostonokulov Azamat Abdulkarimovich, Inoyatov Mardonbek Mo'min o'g'li</i> DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDITNING XALQARO STANDARTLARI	216-226
<i>Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich</i> O'ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUV TASHKILIY- IQTISODIY MEKANIZMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI	227-232
<i>Отабеков Отажон Ғайрат ўғли</i> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ОПТИМАЛ СОЛИҚ ЮКИ ВА ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ МАСАЛАЛАРИ	233-243
<i>Шакирова Фароғат Болтаевна</i> ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БАҲОЛАШ ИНДИКАТОРЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ	244-255
<i>Мамбетназаров Бахыт Бисенбаевич</i> ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	256-263
<i>Jumaniyazova Ro'za Quvondiq qizi</i> TURIZM INFRATUZILMASI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	264-269
<i>Matniyozov Murodjon Rajabbayevich</i> DESTINATSIYA IMIDJINI SHAKLLANTIRISHDA TURISTLARNING SODIQLIGI VA QONIQLASHINING AHAMIYATI	270-278

<i>Хамидова Зарифа Урол қизи</i> ДАВЛАТ СЕКТОРИДА ИЧКИ АУДИТ ВА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТ ТАДБИРЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ	279-291
<i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i> KICHIK TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIIY-IQTISODIY MONIYATI	292-296
<i>Худойназаров Фахритдин Хаитович</i> ИБН ХАЛДУННИНГ ИҚТИСОДИЁТГА ТАВСИЯЛАРИ	297-304
<i>Nurullayev Hoshimjon Hamidovich</i> GASTRANOMIYANING TURIZM RIVOJLANISHIDAGI ANAMIYATI	305-313
<i>Кадырова Шарофат Амоновна</i> ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	314-323
<i>Бегматова Зиёда Захиджановна</i> ДАВЛАТ ИНТЕРАКТИВ ХИЗМАТЛАРИ ТИЗИМИ АСОСИДА КАДРЛАР БАНДЛИГИНИ ВА УЛАРГА ТАЛАБНИ БАҲОЛАШ	324-332
<i>Shafkarov Bakhrom Khudoyberdievich</i> TERRITORIAL FEATURES AND THEIR EFFECTIVE USE IN THE CULTIVATION OF VITICULTURE PRODUCTS	333-340
<i>Masharipova Fazilat Axmedovna</i> OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ANAMIYATI	341-348
<i>Мусинов Дилшод Султанович</i> ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГИЖТИМОИЙ ВА ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИИҚТИСОДИЙ ЎСИШ ОМИЛИ СИФАТИДА	349-359
<i>Шакирова Юлдуз Сайдалиевна</i> ВОПРОСЫ РАЗРАБОТКИ ДОРОЖНОЙ КАРТЫ АКТИВИЗАЦИИ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ	360-368
<i>Абдивоҳидов Мамуржон Авазхон ўғли</i> РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ МАЗМУНИ, ТАВСИФИ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ	369-380
<i>To'xtasinova Muxayyo Mirzasultonovna</i> DAVLATNING INNOVATSION TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALASIGA	381-388
<i>Қурбанова Раҳима Джамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна</i> РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В СТИМУЛИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	389-403
<i>Набиева Нилуфар Муратовна</i> ОСОБЕННОСТИ КОМПЛЕКСА МАРКЕТИНГОВОГО ПРОДВИЖЕНИЯ КОМПАНИИ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ	404-416

<i>Safarov Radjabboy Eshmuxammadovich</i> KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA INDIVIDUAL DAROMADGA SOLIQLAR MEKANIZMIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI	417-428
<i>Sharipova Zulayho</i> SANOAT TARMOQLARI KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	429-434
<i>Шарипов Акбар Илхамович</i> ЧАКАНА САВДО КОРХОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РАҚАМЛИ МАРКЕТИНГНИ РОЛИ	435-440
<i>Хаджаев Хабибулла Сагдуллаевич</i> ОБЪЕКТИВНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ АНТИМОНОПОЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ	441-447
<i>Хамзайева Дилфуза Самаровна</i> SURXANDARYO VILOYATIDA TURISTIK MAHSULOTLARNI BAHOLASH VA SAMARALI RIVOJLATIRISH IMKONIYATLARI	448-452
<i>Усманова Насиба Акбаржоновна</i> ПУТИ РАЗВИТИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В СФЕРЕ УСЛУГ	453-459
<i>Исхакова Сарвар Аюбовна</i> ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ЗАНЯТОСТЬ И КВАЛИФИКАЦИЮ ПЕРСОНАЛА В СФЕРЕ БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	460-467
<i>Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich</i> INNOVATSION TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISHDA MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH VA UNI TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	468-479
<i>To'uchiyeva Nodira G'ulom qizi</i> OLIY TA'LIMNI BOSHQARISHDAGI INNOVATSIYALAR. CHAT GPT YOHUD SUN'IY INTELLEKT	480-485
<i>Абдурахимова Саида Аҳмаджановна, Адилова Гўзал Абзаловна</i> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИНИНГ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ	486-494
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i> TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	495-500
<i>Tadjibekova Dilnoza Bakhtiyarovna</i> ENHANCING FINANCIAL RESOURCE FORMATION IN BUSINESSES	501-506
<i>Radjabova Malika Ziyodullayevna</i> AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI XUSUSIDA	507-512

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Asraqulova Adiba Nabiyevna</i> ZAMONAVIY DAVRDA IQTISODGA FALSAFIY QARASHLAR	513-520
<i>Жўраев Аҳмад Муҳаммадиевич</i> ТИНЧЛИКПАРВАРЛИК ҲОЯЛАРИНИНГ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ АҲАМИЯТИ	521-530
<i>Гуламова Мавжуда Ташпулатовна</i> АХМАД ЗИЁУДДИН АЛ-КУМУШХОНаВИЙ АСАРЛАРИДА КОМИЛ ИНСОҲ ҲОЯЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ	531-538
<i>Abduxolikova Nasiba Alijonovna</i> YOSHLARNING ONLAYN TA'LIM JARAYONIGA TA'SIR ETUVCHI IJOBIIY SALBIY OMILLAR	539-544
<i>Yazdonov Zikirillo Shukurilloevich</i> QALANDARIYLIK VA UNING INSON, JAMIYAT TIZIMIDAGI O'RNI	545-552
<i>Sharipova Barno Salimovna</i> BIOETIK MADANIYATNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING ZAMONAVIY IMIJI	553-558
<i>Xalikulova Umida Rustamovna</i> AXBOROT MUHITINING OLIY TA'LIMGA TA'SIRI: KONSTRUKTIV VA DESTRUKTIV OMILLAR	559-564
<i>Abbasova Maftuna Subxonovna, Temirova Xurshida</i> OILA VA NIKOH MA'NAVIYATI, OILANI MUSTAHKAMLASH OMILLARI	565-571
<i>Tog'ayev Nodirjon Ergashevich</i> AJDODLARIMIZ BOY ILMIY MEROSINING O'ZBEKISTONDA MA'RIFATLI JAMIYAT QURISH HAMDA YOSHLAR TARBIIYASIDA TUTGAN O'RNI	572-576
<i>Kipchoqov Xomidjon Gulomovich</i> JAVOBGARLIK PRINSIPINI SHAKLLANTIRISH AXLOQSHUNOSLIKNING ASOSIIY MASALASI SIFATIDA	577-581
<i>Raximova Rayxon Abdurasulovna</i> ZAMONAVIY OILADA MA'NAVIY-AXLOQIIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMONING NAZARIY VA USLUBIIY TAHLILI	582-586
<i>Агзамова Нилюфар Шухратовна</i> "АДАБ АЛЬ-ТАБИБ" КАК ИСТОЧНИК НАЦИОНАЛЬНОЙ БИОЭТИКИ	587-591
<i>Axmadiyev Nuriddin Muxutdinovich</i> INTELLEKTUAL MADANIYAT YOSHLARNING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM MEZONI SIFATIDA	592-596
<i>Nabiyev Mansur Jamxur o'g'li</i> DEMOKRATIK JAMIYAT TARAQQIIYOTIDA IJTIMOIIY G'OYALAR EVOLYUTSIYASI VA MODERNIZATSIIYASI	597-603

<i>Kenjayeva Dilrabo Romanovna, Xaydarova Larisa Sunnatovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MADANIYAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	604-609
<i>Abduraximova Tursunoy Abduvoxid qizi</i> O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM TRANSFORMATSIYASINING FALSAFIY MOHIYATI	610-615
<i>Tagayev Ganisher Xasanovich</i> YOSHLAR ETNOESTETIK DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA BADIY-ESTETIK OMILLARNING O'RNI	616-625
<i>Шоназаров Жамшид Шуҳратович</i> БЕҲБУДИЙ ВА УНИНГ ДАВЛАТЧИЛИК ҲОЯСИ	626-630
<i>Ҳамраев Сирож Абруевич</i> ЖАМИЯТ ЯНГИЛАНИШИ ВА ТАДБИРКОР МАЪНАВИЯТИ	631-637
<i>Nabiyev Bekzod Muxammadumarovich</i> MAFKURAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARI: O'ZBEKISTON VA XORIY TAJRIBASI	638-642
<i>Hashimova Gulsina Ismoyilovna</i> HARBIY IJTIMOYIY ISH VA HARBIY MADANIYATNING HARBIY XIZMATCHILAR FAROVONLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI	643-648
<i>Karimova Gulnoza Yigitaliyevna</i> AXLOQIY MADANIYAT TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY ZARURIYATI	649-655
<i>Sharipova Kamola Usmonjonovna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASINI MILLIY STRATEGIYAGA TRANSFORMASIYALASH ISTIQBOLLARI	656-661

07.00.00-Тарих фанлари

Olimjonova Gulida Olimjon qizi,
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BOJXONA XIZMATI ORGANLARI FAOLIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz mustaqilligining ilk yillarida boshlab bugungi kungacha bo‘lgan davrda bojxona organlari faoliyati tarixi va kelgusidagi istiqbolli rejalari haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Bojxona organlari, Bojxona qo‘mitasi, bojxona kompleksi, bojxona tizimi, bojxonachi kadrlarni tayyorlash.

Olimjonova Gulida Olimjon qizi,
Independent researcher of Karshi State University

ACTIVITY OF STATE CUSTOMS SERVICE BODIES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract. This article provides information on the history of customs authorities and their future plans from the first years of our country's independence to the present day.

Keywords: Customs authorities, Customs Committee, customs complex, customs system, training of customs personnel.

Олимжонова Гулида Олимжон кизи,
Независимый исследователь Каршинского
государственного университета

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. В данной статье представлена информация об истории таможенных органов и их планах на будущее с первых лет независимости нашей страны до наших дней.

Ключевые слова: Таможенные органы, Таможенный комитет, таможенный комплекс, таможенная система, подготовка таможенных кадров.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I12.1Y2023N06>

Kirish. Bojxona organlarining respublika davlat nazorati va boshqaruvining mustaqil tuzilmasi sifatida shakllanishi O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan keyingina amalga osha boshladi. Mustaqillikning dastlabki yillarida mintaqadagi murakkab vaziyatdan kelib chiqilsa, O‘zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashning muhim sharti sifatida

davlat bojxona xizmati organlarining to'la yangidan vujudga kelishi aslida tarixiy zarurat ham edi. Mustaqillikning eng muhim asosi bo'lgan iqtisodiy suverenitetni, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda bojxona xizmati 90 yillarning boshidan tobora hal qiluvchi ahamiyat kasb eta boshladi. Boisi endigina mustaqil bo'lgan davlat hududiy chegaralarining ochiqligi va nazoratning yo'qligidan foydalanib, ko'plab birlamchi zaruriy iste'mol tovarlari tashib olib chiqib ketila boshlangan edi.

Shu sababli dastlab ichki iste'mol bozorini himoya qilish, respublika tashqarisiga tovar-moddiy boyliklarni g'ayriqonuniy va asossiz ravishda olib ketishga yo'l qo'ymaslik maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 26 sentabrdagi 245-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzurida tovar-moddiy boyliklarni olib ketishni nazorat qiluvchi davlat inspeksiyasi tashkil qilindi [1:13].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Faoliyatining ayrim yo'nalishlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzurida tovar-moddiy boyliklarni olib ketishni nazorat qiluvchi davlat inspeksiyasi ham bojxonaga taalluqli qator funksiyalarni amalga oshirgan. Masalan, respublikadan olib ketiladigan yuklarning qonuniyligini tasdiqlovchi hujjatlarni tekshirish, respublika tashqarisiga yuklarni olib ketuvchi avtotransport vositalarini, harakatdagi temir yo'l sostavini, aviatsiya va daryo kemalarini ko'rikdan o'tkazish shular jumlasidandir.

O'sha davrda mazkur inspeksiyaga ajratilgan 50 ta vagoncha, radioelektronika va aloqa vositalari, binolar, postlarni obodonlashtirish uchun to'siq bordyorlar va shlagbaumlardan foydalanib, respublikamizning chegaradosh joylarida yuzdan ortiq qo'nalg'alar, aeroportlarda, shohbekatlarda, temir yo'l stansiyalarida, daryo postlarida postlar, ko'chma-tekshiruv postlari tashkil qilindi.

1991-1992 yillarda respublikamizda chegara qo'shinlari bo'lmaganligi sababli, Davlat inspeksiyasining xodimlari O'zbekiston Respublikasining chegaralarini qo'riqlash vazifasini ham bajarishgan [1:21 – 22].

Ammo, bu bilan mustaqil davlatning yagona bojxona siyosatini to'laqonli yuritib bo'lmas edi. Shu boisdan, istiqloлга erishilganidan ikki oy o'tmasdan, 1991 yil 25 oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Bojxona komitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF-284-son Farmoni bilan mustaqil O'zbekiston Respublikasining ilk davlat bojxona tuzilmasi – Bojxona qo'mitasi tashkil qilindi. Bojxona qo'mitasining birinchi raisi etib, Erkin Miyassarovich Jo'rayev tayinlandi [1:14].

Bojxona qo'mitasini tashkil qilishda eng avvalo respublikaning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish, bojxona xizmati faoliyati hamda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish ko'zlangan edi. Farmon qabul qilingan sananing ertasiqayoq – 1991 yil 26 oktabrda uning ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining "Respublikada bojxona xizmatini tashkil etish va uning faoliyati masalalari haqida" 272-son qaror qabul qilindi.

Qarorning muhim jihati shundaki, tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha respublika yagona davlat bojxona statistikasini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha vazirliklar va idoralar, korxonalar, xo'jaliklar va tashkilotlar, qaysi idoraga qarashliliklaridan, mulkiy shakllaridan, yuridik maqomidan, bojxona imtiyozlaridan foydalanishlaridan qat'i

nazar, O'zbekiston Respublikasi hududidagi yuk ortish va olish joylarida bojxona organlarida eksport-import tovarlarni va boshqa mol-mulklarni deklaratsiya qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Bu butun dunyoda tan olingan va amaliyotda qo'llab kelinayotgan jahon standartlariga mos bojxona tartibotlari sari qo'yilgan ilk va muhim qadamlardan biri edi. Qaror bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz va Farg'ona hududiy bojxona muassasalari va ularga bo'ysunuvchi statsionar 40 ta bojxona posti tashkil qilindi.

Bojxona qo'mitasi tomonidan qisqa muddatda keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirildi. Masalan, 1992 yil 5 martda Andijon viloyatida "Do'stlik" bojxona kompleksi binosi foydalanishga topshirildi, 8 iyulda esa O'zbekiston Respublikasi "Bojxona hamkorligi kengashini ta'sis etish to'g'risida"gi xalqaro Konvensiyaga a'zo bo'ldi. 1992 yil 28 iyulda mustaqil O'zbekiston Respublikasi Jahon bojxona tashkilotiga a'zo bo'ldi [1:45 – 46].

Tahlil va natijalar. 1992 yil 10 avgustda bojxona xizmatini mustahkamlash va takomillashtirishga qaratilgan yana bir muhim hujjat qabul qilindi — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-451-son Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi bilan Ichki ishlar vazirligi huzuridagi "O'zbekiston Respublikasi hududidan tovar-moddiy boyliklarning noqonuniy olib chiqib ketilishini oldini olish bo'yicha Inspeksiya"si birlashtirilib, Davlat bojxona qo'mitasi hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari tashkil qilindi.

Davlat bojxona qo'mitasining birinchi raisi sifatida militsiya general-mayori O'raimjon Abdug'aniyev tayinlandi.

Mazkur o'zgarishlardan eng avvalo yagona davlat boj siyosatini o'tkazish, respublikani iqtisodiy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, narkotik moddalar, qurol-yarog', o'q-dori, portlovchi moddalar kontrabandasiga qarshi kurash samaradorligini oshirish, shuningdek taqiqlangan buyumlarning qonunga xilof ravishda olib kelinishi hamda moddiy va madaniy boyliklar olib chiqib ketilishini oldini olish ko'zlangan edi.

Bu davrda bojxona tizimi oldida zudlik bilan hal etilishi lozim bo'lgan qator masalalar, shu jumladan, normativ-huquqiy bazani mustahkamlash, bojxona qonunchiligiga doir loyihalarni ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash, moddiy-texnika ta'minotini mustahkamlash yo'lida ham sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Masalan, Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 1 martdagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatining ba'zi masalalari to'g'risida"gi 111-sonli qarori asosida Davlat bojxona qo'mitasining boshliqlar tarkibi uchun maxsus unvonlar berish to'g'risidagi vaqtinchalik Nizomlar tasdiqlandi [1:34].

Shuningdek, bojxonachi kadrlarni tayyorlashga mo'ljallangan dastlabki ta'lim muassasasi – O'quv markazi tashkil etildi. Mazkur markaz 1994 yilning 1 senyabridan e'tiboran, bojxona organlariga qabul qilingan xodimlar uchun 1 oylik boshlang'ich tayyorgarlik kurslarini yo'lga qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 7 maydagi "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni bilan bojxona organlariga valyutani tartibga solishni ta'minlash vazifasini amalga oshirish vakolati berildi.

1993 yil 26 mayda Namangan viloyati bojxona boshqarmasi ma'muriy binosi foydalanishga topshirilgan bo'lsa, oradan sanoqli kunlar o'tib, 5 iyun kuni Bojxona xizmati tizimida Markaziy bojxona ekspertiza laboratoriyasi tashkil etildi.

Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 7 oktabrdagi 152-f-son Farmoyishiga asosan 1994 yil 1 yanvardan boshlab respublikaga olib kirilayotgan va olib chiqilayotgan barcha turdagi tovar va transport vositalari majburiy deklaratsiyalanishi tartibi joriy etildi.

1994 yil 18 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-744-son Farmoniga asosan, Davlat bojxona qo'mitasi Bosh bojxona boshqarmasiga aylantirilib, Davlat soliq qo'mitasi tarkibiga kiritildi. Bosh boshqarma boshlig'i sifatida esa bojxona xizmati general-mayori Sabit Alimbayev tayinlandi.

Bojxona ishini tashkil qilishni yaxshilash, yagona bojxona siyosatini o'tkazish, respublika bojxona organlarining tezkorligini hamda ular faoliyatining samaradorligini oshirish, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashda ularning rolini kuchaytirish, shuningdek, bojxona ishi sohasidagi xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida 1997 yil 8 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-1815 sonli Farmoniga binoan O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi qayta tashkil qilindi va unga huquqni muhofaza qiluvchi organ maqomi berildi.

Farmon ijrosi doirasida qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi 374-son qarori bilan "Davlat bojxona qo'mitasi to'g'risidagi Nizom" hamda bojxona xodimlarining maxsus xizmat formasi tasdiqlandi [1:43].

Yangidan tashkil etilgan Davlat bojxona qo'mitasiga rais qilib, general-mayor Utkir Tolipovich Komilov (1997-2000) tayinlandi, ushbu rais 2001-2002 yillarda ham mazkur lavozimda faoliyat yuritdi.

Keyingi yillarda esa bojxona xizmati general-mayori Said-Azim Aripov (2000-2001y), ichki xizmat general-mayori Ravshan Haydarov (05.2002-11.2002), general-mayor Botir Parpiyev (2002-2004), general-leytenant Baxodir Matlyubov (2004-2006), bojxona xizmati general-mayori Sadirxon Nasirov (2006-2011), bojxona xizmati polkovnigi Zoxid Dusanov (2011-2016), general-mayor Muidjon Toxiriy (2016-2018), bojxona xizmati general-mayori Murotjon Azimov (2018-2021) Davlat bojxona qo'mitasi raisi sifatida xizmat olib borishdi. Hozirda ushbu sharaflı vazifani bojxona xizmati general-mayori Akmalxo'ja Mavlonov davom ettirmoqda.

1997 yil bojxona sohasida milliy qonunchilikni takomillashtirishda tub burilish pallasi bo'ldi desak yanglishmaymiz. 1997 yilning 29 avgustida O'zbekiston Respublikasining "Boj tarifi to'g'risida"gi va "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi qonunlari, 26 dekabrda esa O'zbekiston Respublikasining birinchi "Bojxona kodeksi" qabul qilindi. 2016 yil yanvarida esa mazkur kodeks yangi tahrirda qabul qilindi.

Muhokama. Muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan so'nggi yillarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llagan holda qulay biznes muhitini yaratish borasida Davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan,

2017-2021 yillar davomida 164 ta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, shundan 8 ta O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, 15 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari, 45 ta Vazirlar Mahkamasi qarorlari, 96 ta DBQning idoraviy qarorlari qabul qilindi. Natijada, 2018

yil 1 yanvardan- O'zbekiston Respublikasi xalqaro aeroportlarida yo'lovchilar uchun ikki yo'lakli (yashil va qizil) tizim ishga tushirildi [3].

2021 yil 1 yanvardan-O'zbekiston Respublikasi avtomobil va temir yo'l o'tkazish punktlarida yo'lovchilar uchun ikki yo'lakli tizim amaliyotga joriy etildi.

2018 yil 1 yanvardan- "yalpi" bojxona nazoratidan voz kechilib, tovar va transport vositalarini "Xavfni boshqarish" tizimi orqali bojxona nazoratidan o'tkazish amaliyoti joriy qilindi. Ruxsat berish tusidagi 10 dan ortiq tartibotlar bekor qilindi. 26 yanvar – O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati xodimlarining kuni etib belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlarining bayrog'i va farqlash belgisi namunalari tasdiqlandi. Oliy harbiy bojxona instituti Davlat bojxona qo'mitasining Bojxona instituti etib qayta tashkil etildi.

2018 yil 1 dekabrda "Xavfni boshqarish" avtomalashtirilgan axborot tizimi orqali tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvda "sariq" va "qizil" yo'laklar tartibi amaliyotga joriy etildi [4].

2019 yil 1 martdan tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvda "Yashil" va "ko'k" yo'laklar tartibi amaliyotga joriy etildi. 2019 yil 1 fevraldan halol, qonunga itoatkor tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun vakolatli iqtisodiy operatorlar instituti joriy etildi. Davlat bojxona xizmati organlari xodimlari mehnatiga haq to'lash tartibi takomillashtirildi.

Bojxona postlari yuridik shaxs maqomi berilib, ularga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib post boshliqlariga jismoniy va yuridik shaxslarning ayrim murojaatlarini qabul qilishlari, ko'rib chiqishlari hamda tegishli yozishmalarni imzolash vakolatiga ega bo'ldi.

Davlat bojxona qo'mitasining Milliy kinologiya faoliyati yanada takomillashtirildi.

2020 – 2023 yillarda bojxona ma'muriyatchiligini isloh qilish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish konsepsiyasi tasdiqlandi. 2020 yil 1 sentabrdan — "Yagona darcha" bojxona axborot tizimi chegara bojxona postlarida joriy etildi. 2020 yil 1 noyabrdan-bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirish vaqti xavf darajasidan kelib chiqib, 3 sutkadan 1 kungacha qisqartirildi. 2020 yil 1 noyabrdan – xavflarni boshqarish tizimi avtomobil chegara bojxona postlarida joriy etildi. 2020 yil 5 iyundan – bojxona organlariga tovar va transport vositalari ustidan ular saqlanadigan va sotiladigan joylarga chiqqan holda, bojxona auditini amalga oshirish huquqi berildi.

2021 yil 10 sentabrdan – Davlat bojxona qo'mitasi tizimida alohida yuridik shaxs maqomga ega Markaziy bojxona laboratoriyasi tashkil etildi.

2021 yil 1 oktabrdan boshlab Davlat bojxona qo'mitasining Toshkent, Sirdaryo, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlari bo'yicha boshqarmalarida "Masofaviy elektron deklaratsiyalash" bojxona postlari tashkil etildi.

2021 yil 1 dekabrda — O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi orqali avtomobil o'tkazish punktlarida veterinariya va fitosanitariya organlarining tovarlarga tegishli hujjatlarini tekshirish va rasmiylashtirish vazifalari "Yagona darcha" bojxona axborot tizimi yoki unga integratsiyalashgan axborot tizimlari orqali amalga oshiriladi [5].

Bojxona sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar bojxona organlari obyektlari infratuzilmasini tubdan o'zgartirib yubordi.

Xalqaro standart va talablarga moslashtirish maqsadida 2017-2021 yillarda respublika bo'yicha jami 28 ta (4 ta (2017 y), 6 ta (2018 y), 7 ta (2019 y), 5 ta (2020 y), 6 ta (2021 y)) chegara va tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona postlarida zamonaviy ko'rinishda qayta qurish va ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Natijada chegara o'tkazish punktlarida yo'lovchilar va transport vositalari o'tkazuvchanligi 2 – 4 barobarga oshirildi, yuk tashuvchilar, tadbirkorlik subyektlari va fuqarolarga qulay shart-sharoitlar yaratildi.

Bojxona postlarida xizmat faoliyati olib borayotgan xodimlar uchun xizmat va dam olish xonalari, fuqarolar va ularning bolalari uchun xonalar, namozxona va boshqa idoralar xonalari zamonaviy dizayn shakldagi yangi inventarlar bilan jihozlandi.

Davlat bojxona qo'mitasining hududiy boshqarmalari markaziy apparati xodimlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida ushbu davrda respublika bo'yicha jami 10 ta (3ta (2017y), 2ta (2019y), 3ta (2020y), 2 ta (2021y)) boshqarma ma'muriy binolar zamonaviy shaklda qayta qurilib, yangi inventarlar bilan ta'minlandi [5].

Olis hududlarda xizmat qilayotgan xodimlarimiz oila a'zolari uchun shahardagidek barcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumanida 36 ta xonadonli, Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida 32 ta xonadonli xizmat uylari qurilib, xodimlarga tantanali ravishda topshirildi.

Shu bilan birga, Toshkent viloyatining Chimyon qishlog'ining bahavo joyida xodimlar va oila a'zolarining dam olishlari hamda sog'liqlarini tiklashlari barcha shart — sharoitlarga ega bo'lgan 136 o'rinli "Baxt" sport sog'lomlashtirish majmuasining faoliyati (2019 yildan) yo'lga qo'yilgan.

Bojxona organlari avtoparkini zamonaviy, tejamkor avtomashinalar bilan jamlash maqsadida 2017-2021 yillar davomida DBQ Markaziy apparati va hududiy boshqarmalari jami 108 ta avtomashinalar bilan ta'minlandi [5].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarga tashriflari davomida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda Hukumat tomonidan berilgan topshiriqlar ijrosi bo'yicha Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida chekka hududlardagi 13 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida sendvich moduliga joylashtirilgan suv filtrlash qurilmalari o'rnatilib, foydalanishga topshirildi;

- 5 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari, 1 ta umumta'lim maktabi, 1 ta futbol maydoni va 1 ta yoshlar sport majmuasi zamonaviy shaklda qurildi.

Bojxona organlari faoliyatida xalqaro hamkorlik muhim o'rin tutadi. Respublikamizning xalqaro hamjamiyat bilan ochiq va amaliy tashqi siyosati xalqaro hamkorlik bo'yicha faoliyatimizni yanada rivojlantirdi.

Hozirda 35 ta xorijiy bojxona xizmatlari bilan hamkorlik qilinmoqda.

Xalqaro yo'nalishda hamkorlikning huquqiy asoslarini yaratish eng dolzarb masala hisoblanadi. O'tgan davrda oliy va yuqori darajadagi tashriflar doirasida bojxona ishi bo'yicha 31 ta xalqaro shartnoma (2017 yil – 7 ta.; 2018 yil – 9 ta.; 2019 yil – 5 ta; 2020 yil – 2 ta; 2021 yil – 8 ta) imzolandi. Xalqaro standartlarni milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish

maqsadida 2020 yilda “Vaqtincha olib kirish bo’yicha” Istanbul Konvensiyasi, 2021 yilda “Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg’unlashtirish bo’yicha” Kioto Konvensiyasiga qo’shildi.

Xalqaro tashkilotlar bilan har tomonlama hamkorlik yanada rivojlandi. Jahon bojxona tashkiloti bilan o’zaro munosabatlar yangi bosqichga chiqdi.

O’zbekiston bojxonasi tarixida birinchi marta DBQ xodimi U.Tadiyev tashkilot kotibiyatida 10 oylik stajirovka o’tadi, 1 nafar xodim Yaponiya bojxona laboratoriyasida malaka oshirdi, 1 nafar xodim tashkilotning Virtual bojxona akademiyasida o’qidi. 2021 yilda Markaziy bojxona laboratoriyasiga Jahon bojxona tashkilotining mintaqaviy bojxona laboratoriyasi maqomi va Bojxona institutiga PICARD xalqaro sertifikatini topshirildi [5].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bojxona organlarining respublika davlat nazorati va boshqaruvining mustaqil tuzilmasi sifatida shakllanishi O’zbekiston o’z mustaqilligini qo’lga kiritganidan keyingina amalga osha boshladi deyish mumkin. Mustaqillikning dastlabki yillarida mintaqadagi murakkab vaziyatdan kelib chiqib, O’zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning muhim sharti sifatida davlat bojxona xizmati organlarining to’la yangidan vujudga kelishi aslida tarixiy zarurat ham edi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. G’ulomov S. va boshq. Bojxona ishi tarixi: monografiya. –Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2015 yil.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 8 iyuldagi «O’zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo’mitasini tashkil qilish to’g’risida»gi PF-1815-son farmoni.
3. 2016 yil 20 yanvarda yangi tahrirdagi O’zbekiston Respublikasining «Bojxona kodeksi».
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 apreldagi «O’zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PF-5414-son farmoni
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 noyabrdagi «O’zbekiston Respublikasi bojxona organlari kadrlarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi qarori.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 12/1 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).